



BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUV JARAYONINI FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Elmurodova I. A.

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida erkin tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, fanlararo integratsiya, o'quv jarayoni, pedagogik asoslar, ta'lim-tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, shakl, metod, vosita, ona tili, tabiiy fanlar, muammoli vaziyat, samaradorlik, o'qitish.

Ключевые слова: начальный класс, междисциплинарная интеграция, образовательный процесс, педагогические основы, образование, знания, умения, квалификация, компетентность, форма, метод, среда, родной язык, естественные науки, проблемная ситуация, эффективность, преподавание.

Key words: primary grade, interdisciplinary integration, educational process, pedagogical foundations, education, knowledge, skills, qualifications, competence, form, method, medium, native language, Natural Sciences, problem situation, efficiency, teaching.

Dunyoda ta'limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, uzluksiz ta'lim tizimining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining didaktik-pedagogik imkoniyatlari va texnologiyalarini aniqlashtirish alohida ahamiyatga molikdir. Shu asnoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kun o'quv jarayonida fanlarni integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va zamonaviy o'qitish texnologiyalarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik qonuniyat va tamoyillarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Integratsiya-fan bilimlari chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni



to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'lim jarayonining o'quv fanlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani takomillashtirish bosqichida o'quv fanlarining kommunikativ masalalarini maqsadga muvofiq tanlash va o'zaro bog'liqligini ta'minlashni ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga taklif etilgan masalalarni yechish shartlar bilan tanishish, yechish va nazorat kabi ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi. Masalani o'quv hamkorligi sharoitlarida hamkorlikda yechishning barcha bosqichlari individual yechimga nisbatan ma'lum darajada o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari qiyinchiliksiz hamkorlikda belgilangan boshlang'ich xatti-harakatlar va jarayonlarni taqsimlaydilar, xatti-harakat usullari bilan almashdilar, umumiy faoliyat usullarini rejalashtirdilar, bu esa qo'yilgan vazifalarda ham o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning har bir bosqichida hamkorlikda o'qitish imkoniyatlari namoyon bo'ldi.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani takomillashtirish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik jarayonini umumlashtirishda pedagogik sharoitni amalga oshirish o'qituvchining boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan uning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari, o'quv faoliyati jarayonida aniqlangan yutuqlari va qiyinchiliklari va otanalari bilan munosabatlarini muhokama qilish orqali amalga oshiriladi. Sanab o'tilgan tavsiflarning hamkorlikdagi tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z xulqlari ko'rsatkichlarini o'zgartirishlariga yordam berdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosini hal etishning nazariy va amaliy tajribasiga tayanib, fanlararo integratsiyani takomillashtirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni belgilanadi va amalga oshiriladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib beradi.

Fanlararo integratsiya quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

o'quvchi aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o'tkazilgandagi tavsifining o'zgarishi;



ilmiy bilimlar mohiyat jihatidan o‘zaro bog‘liqligini o‘quv vazifalariga aylantirish;

o‘quvchi ijodkorlik qobiliyati tarkib topishini ta‘minlovchi fanlararo bilim va ko‘nikmalarni egallash darajalarini belgilab olishni nazarda tutadi.

Mazkur jarayonlarga hamohang tarzda o‘quv jarayonida fanlararo integratsiyani ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash lozim. O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyatning samaradorligi asosan o‘quv fanlari o‘qituvchilarining ijodiy izlanishlari va faoliyatlarining mazmundorligiga ham bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘qitish asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

boshlang‘ich ta‘lim o‘quv rejaları va o‘quv dasturlari optimallashtiriladi;

boshlang‘ich sinflarda bir qancha fanlar qisqarishi natijasida kichik maktab yoshidanoq tillarni o‘rgatish yoki jismoniy rivojlantirish uchun imkoniyat tug‘iladi;

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mustaqil va mantiqiy fikrlash, abstrakt tafakkur yuritish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

o‘quvchilarda tabiat, jamiyat va fan haqidagi yaxlit tushunchalar va tasavvurlar, hayotiy ko‘nikmalar shakllantirib boriladi.

Binobarin, o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish moddiy va ma‘naviy olamni tadqiq qiluvchi turli fanlarning o‘zaro hamkorligi ular rivojining tabiiy jarayoni va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida nazarda tutish zarur.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlashda mazmun jihatdan o‘zaro yaqin fanlarning manbalari nihoyatda talabchanlik bilan tanlanishi lozim. Shundagina o‘rganilayotgan o‘quv materialining ilmiy-amaliy darajasi oshadi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf fanlarini integratsiyalash jarayonida o‘quvchilar nafat o‘quv manbalari balki, Sharq mutafakkirlarining odob-axloq qoidalari va kasb - hunar tanlashga oid fikrlari va g‘oyalari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi ilmiy manbalardan ko‘rinib turibdiki, ta‘lim o‘z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so‘z bilan aytganda, hayot bilan bog‘lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o‘z oldiga qo‘ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta‘lim-tarbiya va iqtisodiyotning o‘zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini



ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi.

O'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash bilimlarning turli sohalarida ilmiy-tadqiqot maqsad va vazifalarining, shuningdek, mazkur muammo va maqsadlari hal etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilishga oid vositalar o'ziga xos yagona tizimining mavjudligini nazarda tutuvchi o'zaro aloqalar shaklini tushunish lozim. Yangi sifatni shakllantirish integratsiya jarayonining ahamiyatli belgisi hisoblanadi, chunki avval tarqoq elementlarni muayyan o'zgartirish bilan muqarrar bog'liq bo'lgan bilishning yangi bosqichini aks ettiradi.

Fanlararo integratsiyani muhim obyektiv qonuniyat deb hisoblab, ta'lim mazmuni tuzilmasini muayyan qayta tuzish zarurati aniqlanadi. Bunda integrativ samaradorligining yuzaga kelishiga yordam beruvchi didaktik va metodik asosi, o'qitish shakl va metodlarini aniqlashga urg'u beriladi. Ta'limning tor predmetli yo'nalganligining mavjud tizimi ta'lim mazmunining integratsiyasini to'liq hajmda amalga oshirishga imkon bermaydi.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quv jarayonini fanlararo integratsiyalashda o'quvchilar ozlashtirishi uchun shart-sharaitlarni shunday tashkil etish kerakki, ular o'z faoliyatlaridan muayyan qoniqish, yutuq va samaraga ega bo'lislari kerak. Ular o'zlariga topshirilgan vazifalarni bajarganlaridan so'ng, yangi yanada murakkab jarayonlarga o'tiladi. Bu esa yangi qoidalariga qat'iy amal qilish va o'z kuchlariga nisbatan ishoch hissini tug'diradi. O'quvchi shaxsining eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri bilim ekanligini tushunadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish samaradorligini oshirishda innovatsion faoliyatning imkoniyatidan qanday foydalanish mumkin? Savoliga javob izlashdan iborat bo'lgan muammo hal etilganligi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi. Olingan natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun tavsiyalarda ifodalandi, ularda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish holati pedagogik faoliyatda o'z aksini topmoqda.

Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tabiiy va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo bog'lab o'qitishda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarda rivojlantirilgan mantiqiy fikrlash ularning shaxsiy xususiyat va sifatlarini ham ifodalaydi. Shuning uchun o'quvchilarda fanlararo integratsiya jarayoni rivojlanganligi korsatkich darajalari bo'yicha baholandi.

Fanlararo integratsiya jarayonini takomillashtirishda boshlang'ich sinflarda tabiiy va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo bog'lab o'qitishni



rivojlantirishda o'quvchilarda umumiy tasavvurlarni hosil qilish, shu bilan birga samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, bir qator mantiqiy mashqlar o'yin tarzida o'tkaziladi. Bu juda muhim, chunki u o'quvchilarning yosh xususiyatlariga javob beradi. Ma'lumki, o'yinlar aqliy rivojlanish vositalaridan biridir. Didaktik o'yin jarayonida o'quvchi obyektlar, ularning o'zaro joylashishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonini fanlararo integratsiyasi asosida takomilladshirish funksiyasi dialektik mantiq asosida va o'quv materialini mantiqiy tashkil etishning umumlashgan ko'nikmalarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Umumlashgan bilishga oid ko'nikmalarining mahsuldor roli rivojlantiruvchi o'qitishning belgilaridan biri hisoblangan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun haqiqiy sharoitlarini ta'minlaydi. Integrativ o'qitish metodining rivojlantiruvchi funksiyasini ifodalovchi ikkinchi muhim tavsif talabalarning o'qish jarayonini anglash, o'qish jarayoniga yagona mexanizm asosida qarash imkonini ta'minlashdan iboratdir.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda tabiiy va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo bog'lab o'qitishda o'quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, esda saqlab qolish va tushunish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fanlararo integratsiyani takomillashtirishda tafakkurni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Tafakkurning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takomillashtirish orqali nafaqat oquv materiallari balki, badiiy adabiyotlarni ham mutalo qilish lozim bo'ladi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish, va ijod qilish faoliyati o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Materialni eslab qolish va jarayonni tushunish usullarini o'rgatish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning garovidir.

Adabiyotlar:

1. Abduraimov Sh.S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish. Disc. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) -T.: 2017. -B.40.



2. Abdusamadov A.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish asosida takomillashtirish metodikasi: ped.fanlari bo'yicha falasafa doktori dissertatsiyasi. Qarshi, 2023.-124 b.

3. Кустов, Ю. А. Интеграция как педагогическая проблема. Кустов, Ю. Ю. Кустов //Интеграция в педагогике и образовании: Сб. науч. метод. работ. - Самара: Самар. индустриал. пед. колледж, 1994. -6-17 с.

4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. -T.: "Ilm Ziyo"-2009. -B.192.

5. Norbutayev H.B. Knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.-P.1032-1040.

6. Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish texnologiyasi (aniq va tabiiy fanlar misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2023. - 121 b.

7. Xasanov A.A.O'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik - pedagogik asoslari // Zamonaviy ta'lim.-2017. 10-son. - B. 9-14.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirishning pedagogik asoslari ya'ni ilmiy-metodik jarayon mazmuni va sifatini ta'minlash mexanizmlariga amal qilish yo'llarining pedagogik jarayonga tadbiiq qilinganligi, fanlar integratsiyasi asosida o'qitish mazmuni, shakl, metod va vositalarini aniqlash va takomillashtirish, shuningdek, olingan natijalardan samarali foydalanish imkoniyati, boshlang'ich sinf ona tili va tabiiy fanlar bo'yicha avval o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'quv jarayoni mazmunini rivojlantirish jihatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны педагогические основы совершенствования образовательного процесса начального образования на основе интеграции наук, внедрения в педагогический процесс способов следования механизмам обеспечения содержания и качества научно-методического обеспечения, определения и совершенствования содержания обучения, форм, методов и методической базы. инструменты, основанные на интеграции, аспекты развития содержания образовательного процесса охватываются применением квалификаций и компетенций в новых ситуациях.

SUMMARY

In the article, the pedagogical foundations of improving the educational process of primary education on the basis of the integration of Sciences are applied to the pedagogical process of ways to follow the mechanisms of ensuring the content and quality of the scientific and methodological process, the content of teaching on the basis of the integration of Sciences, the identification and improvement of forms, methods and, aspects of the development of the content of the educational process are covered by the application of qualifications and competencies in new situations.